

**AYOLLAR ZO‘RAVONLIGIGA QARSHI JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIK:  
JINOYAT TARKIBI ELEMENTLARINING NAZARIY VA AMALIY TAHLILI.**

**Mirzaxmedov O‘tkirbek O‘lmasboy o‘g‘li**

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi  
“Prokurorlik faoliyati” Magistratura tinglovchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20156024>

***Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada ayollarga nisbatan zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlik masalalari jinoiy tarkibi elementlari nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqotda jinoiyatning obyekt, obyektiv tomoni, subyekt va subyektiv tomoni milliy qonunchilik, doktrinal qarashlar hamda qiyosiy-huquqiy yondashuv asosida o‘rganildi. Natijada ayollarga nisbatan zo‘ravonlik ko‘p obyektli ijtimoiy xayfli qilmish ekani, uning tashqi ifodasi jismoniy, ruhiy, jinsiy va iqtisodiy shakllarda namoyon bo‘lishi, ayrim hollarda maxsus subyekt belgilariga ega bo‘lishi hamda ko‘pincha qasddan sodir etilishi aniqlandi. Muallif tomonidan jinoiyatlarni kvalifikatsiya qilishda kompleks yondashuvni qo‘llash, himoya orderlari samaradorligini oshirish va sud-tergov amaliyotida yagona metodik mezonlarni ishlab chiqish bo‘yicha takliflar ilgari surildi.*

***Kalit so‘zlar:** ayollar huquqlari, zo‘ravonlik, jinoiy tarkibi, obyekt, obyektiv tomon, subyekt, subyektiv tomon, jinoiy javobgarlik, oilaviy zo‘ravonlik.*

***Аннотация.** В данной научной статье вопросы уголовной ответственности за насилие в отношении женщин проанализированы с точки зрения элементов состава преступления. В исследовании объект, объективная сторона, субъект и субъективная сторона преступления изучены на основе национального законодательства, доктринальных взглядов и сравнительно-правового подхода. В результате установлено, что насилие в отношении женщин является многообъектным общественно опасным деянием, его внешнее проявление выражается в физической, психологической, сексуальной и экономической формах, в отдельных случаях оно характеризуется признаками специального субъекта и чаще всего совершается умышленно. Автором выдвинуты предложения по применению комплексного подхода при квалификации преступлений, повышению эффективности охранных ордеров и разработке единых методических критериев в судебно-следственной практике.*

***Ключевые слова:** права женщин, насилие, состав преступления, объект, объективная сторона, субъект, субъективная сторона, уголовная ответственность, семейное насилие.*

***Annotation.** This scientific article analyzes the issues of criminal liability for violence against women from the perspective of the elements of corpus delicti. The study examines the object, objective side, subject, and subjective side of the crime on the basis of national legislation, doctrinal views, and a comparative legal approach. The results show that violence against women is a multi-object socially dangerous act, manifested externally in physical, psychological, sexual, and economic forms; in certain cases, it is characterized by features of a special subject and is most often committed intentionally. The author proposes the application of a comprehensive approach to crime qualification, increasing the effectiveness of protection orders, and developing unified methodological criteria in judicial and investigative practice.*

**Keywords:** *women's rights, violence, corpus delicti, object, objective side, subject, subjective side, criminal liability, domestic violence.*

## **KIRISH.**

Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik zamonaviy jamiyatda inson huquqlari, gender tenglik va ijtimoiy adolat bilan bevosita bog‘liq global muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur hodisa nafaqat alohida shaxsning hayoti, sog‘lig‘i va sha‘niga tajovuz qiladi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois ayollarni zo‘ravonlikdan himoya qilish masalasi xalqaro tashkilotlar, milliy qonunchilik organlari hamda huquqni qo‘llash amaliyoti diqqat markazida turibdi.[1]

O‘zbekiston Respublikasida ham xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, jinoyat-huquqiy normalarni to‘g‘ri qo‘llash uchun ayollarga nisbatan zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlarning tarkibiy elementlarini chuqur tahlil qilish zarur. Chunki jinoyat tarkibi elementlarini noto‘g‘ri baholash qilmishni xato kvalifikatsiya qilishga, natijada esa adolat prinsipining buzilishiga olib kelishi mumkin[2].

**Mazkur maqolaning maqsadi** - ayollarga nisbatan zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlik masalalarini jinoyat tarkibi elementlari asosida ilmiy tahlil qilish hamda qonunchilik va amaliyotni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

Formal-yuridik usul – O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi normalarini sharhlashda;

Qiyosiy-huquqiy usul – xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilishda;

Tizimli tahlil usuli – jinoyat tarkibi elementlari o‘zaro bog‘liqligini aniqlashda;

Doktrinal tahlil – olimlar fikrlari va ilmiy manbalarni umumlashtirishda;

Mantiqiy-huquqiy usul – ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqishda[3].

Tadqiqot manbalari sifatida milliy qonunchilik hujjatlari, ilmiy adabiyotlar, sud-tergov amaliyoti materiallari hamda dissertatsiyaning ikkinchi bobi materiallaridan foydalanildi.

## **NATIJARLAR**

### **Obyekt masalasi**

Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik jinoyatlarining obyekt sifatida ayolning hayoti; sog‘lig‘i; shaxsiy daxlsizligi; jinsiy erkinligi; ruhiy barqarorligi; iqtisodiy mustaqilligi; ijtimoiy teng huquqliligini keltirib o‘tishimiz mumkin. Jinoyat huquqida “obyekt” tushunchasiga bir necha olimlar tomonidan turli xil fikrlar bildirib o‘tilgan. Xususan M.H.Rustamboyevning fikricha “jinoyat obyekt deganda – jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Biroq har qanday ijtimoiy munosabat jinoyat obyekt bo‘la olmaydi.

Ba‘zi munosabatlar boshqa huquqiy normalar bilan qo‘llaniladi. Masalan, qarz beruvchi bilan qarzdor o‘rtasidagi da‘volar fuqorolik huquqi bilan tartibga solinadi.[4] Shuningdek, zo‘ravonlik jinoyatining obyekt birinchi navbatda jabrlanuvchining jismoniy daxlsizligi va hayotini himoya qiladi. Shu bilan birga, ruhiy barqarorlik va psixologik salomatlik ham obyekt hisoblanadi, chunki psixologik zo‘ravonlik jabrlanuvchining ruhiy sog‘ligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy zo‘ravonlik orqali ayolning ijtimoiy huquqlari va erkinliklariga zarar yetkaziladi. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi ayollarga qarshi zo‘ravonlikning turli shakllarini alohida tartibda belgilaydi. Masalan, jinsiy daxlsizlikka tajovuz, oilaviy zo‘ravonlik va femitsid holatlarida jabrlanuvchi sifatida ayolning huquqlari himoyalanaadi.

Shu jihatdan, jinoyatning obyekt - jabrlanuvchining hayoti, sog‘ligi, shaxsiy daxlsizligi va ijtimoiy erkinligi hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik jinoyatlarining obyekt bir qatlamli emas, balki murakkab ijtimoiy munosabatlar majmuasidan iborat. Ushbu jinoyatlar ayollarning quyidagi qadriyatlariga tajovuz qiladi: ayolning hayoti; sog‘lig‘i; shaxsiy daxlsizligi; jinsiy erkinligi; ruhiy barqarorligi; iqtisodiy mustaqilligi; ijtimoiy teng huquqliligi kabilar[4].

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, statistik ma‘lumotlarga qaraganda 2025-yil davomida jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan jami 1063 ta oilaviy (maishiy zo‘ravonlik ishlari (shu jumladan 2024-yilda 1079 ta, 2023-yilda 487 ta) ishlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, 2025-yilda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va tazyiq o‘tkazish bilan bog‘liq ko‘rilgan jinoyat ishlari 2493 ta tashkil etadi. Shunda 1748 ta jinoyat ishlari doirasida jami 2233 nafar shaxs javobgarlikka tortilgan. Mazkur jinoyatlardan jami 2822 nafar shaxs jabrlangan ayollarni tashkil etadi.

Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik jinoyatlari bir obyektli jinoyatlar emas aksincha ko‘p obyektli jinoyatlar turkumiga kiradi.

#### **Obyektiv tomonning xususiyatlari**

Mazkur jinoyatlarning obyektiv tomoni turli shakllarda namoyon bo‘ladi:

Asosan faol harakatlar (urish, tahdid qilish, majburlash, jinsiy zo‘ravonlik); harakatsizlik (moddiy ta‘minlamaslik, qarovsiz qoldirish); tizimli tazyiq o‘tkazish; takroriy ruhiy bosim[5].

Shuningdek, ijtimoiy xavfli oqibatlar sifatida tan jarohati, ruhiy travma, depressiya, iqtisodiy qaramlik yoki ijtimoiy izolyatsiya holatlari yuzaga kelishi mumkin. Professor M.H.Rustamboyevning fikricha jinoyatning obyektiv tomoni deganda ijtimoiy xavfli qilmishning tashqi tomoni bo‘lib, jinoyatning qanday sodir etilganligini anglatadi. Aynan ijtimoiy xavfli qilmishning tashqi tomoni bir jinoyatning ikkinchidan ajratish imkonini beradi, chunki bitta obyektga qilinga tajavuz ijtimoiy xavfli qilmishning xususiyati va darajasiga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘g‘rilik yashirin tarzda sodir etilsa, talonchilik jinoyati esa ochiqdan-ochiq tarzda sodir etiladi, bosqinchilik jinoyati esa jabrlanuvchining badaniga shikast yetkazilishiga olib kelgan hujum orqali qilmish bilan bog‘liq bo‘ladi [4].

Mashhur olim Kudryasevning fikricha “jinoyatning obyektiv tomoni qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarga g‘ayriqonuniy ravishda tajovuz qilishning ijtimoiy xavfli jarayoni bo‘lib, unga tashqi tomonda qaraganda jinoiy harakat (harkatsizligi)ning boshlanishi va tamomlanib, jinoiy oqibat ro‘y berishi bilan yakunlanadigan, muayyan tartibda sodir etiladigan voqea va hodisadir. Shuningdek, ushbu jinoyatlarni obyektiv tomoniga I.Y.Kozachenko hamda Z.A.Neznamova kabi huquqshunoslar quyidagicha ta‘rif berib o‘tishgan.

Ularning fikriga ko‘ra, “jinoyatning obyektiv tomoni jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan obyektga zarar yetkazadigan ijtimoiy xavfli tajovuzning tashqi belgilarini ifodalaydigan, tavsiflaydigan, muhim va yetarli hamda zarur belgilar yig‘indisidan iborat hisoblanadi”[5].

Bizningcha esa jinoyatning obyektiv tomoni bu jinoyatning tashqi ko‘rinishi bo‘lib, uning qanday va qay usullarda sodir etilganligiga aytiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ham oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik hamda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik bilan bog‘liq qator jinoyatlar nazarda tutilgan bo‘lib, “ularning obyektiv tomoni turli xil harakatlar orqali ifodalanadi. Jumladan,

-103-modda (o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga etkazish);

-104-modda (qasddan badanga og‘ir shikast etkazish);

-105-modda (qasddan badanga o‘rtacha shikast etkazish);

-109-modda (qasddan badanga engil shikast etkazish);

-110-modda (qiynash);

-112-modda (o‘ldirish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish);

-114-modda (jinoiy ravishda homila tushirish, abort);

-115-modda (ayolni o‘z homilasini sun‘iy ravishda tushirishga majburlash);

-118-modda (nomusga tegish);

-121-modda (ayolni jinsiy aloqa qilishga majburlash);

-126-modda (ko‘p xotinli bo‘lish);

-127-modda (voyaga etmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga yoki jinoyatga jalb qilish) [2] kabi jinoyatlar ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning turli ko‘rinishlarini qamrab oladi.

### **Subyekt masalasi**

Umumiy qoida bo‘yicha ayollarga nisbatan zo‘ravonlik jinoyatlarining subyekt — jinoyat sodir etish yoshiga yetgan, aqli raso jismoniy shaxsdir. Mashhur huquqshunos M.Usmonaliyevning fikricha “jinoyat subyekt - bu ijtimoiy xavfli qilmish dosir qilgan, qonunga muvofiq ravishda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan shaxsdir.[6] Shuningdek, X.Ochilovning jinoyat subyektiga quyidagicha ta‘rif berib o‘tgan.

Uning so‘zlariga ko‘ra “jinoyat subyekt deganda - ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilgan va jinoyat qonunida belgilangan yoshga yetgan aqli raso jismoniy shaxs, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarosi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs tushuniladi. Bundan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, jinoyat subyekt faqat aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi.

Ya‘ni yuridik shaxs tashkilot (muassasa, korxonalar va hokazolar) jinoyat subyekt bo‘la olmaydi. Shuni ham ta‘kidlab o‘tish lozimki, chet el davlatlarining ham jinoyat qonunchiligiga ko‘ra yuridik shaxs jinoyatning subyekt bo‘la olmaydi[7].

Bizningcha ham jinoyat subyekt bu jinoyat qonunida nazarda tutilgan yoshga yetgan, aqli raso jismoniy shaxsga aytiladi Biroq ayrim tarkiblarda maxsus subyekt talabi mavjud. Masalan, oilaviy zo‘ravonlik bilan bog‘liq qilmishlarda subyekt jabrlanuvchi bilan oilaviy yoki yaqin munosabatda bo‘lgan shaxs bo‘lishi mumkin[7].

### **Subyektiv tomon**

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 2-moddasiga binoan ijtimoiy xavfli qilmishni qasddan ehtiyotsizlik orqasida sodir etgan shaxs jinoyat sodir etilishida aybdor deb topilishi mumkin, ya‘ni subyektiv tomoni aqli rasolik shuni anglatadiki, shaxs faqat qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan sodir etgan qilmishi uchun aybdor bo‘lgandagina javobgarlikka tortilishi belgilangan. Professor M.X.Rustamboyevning fikricha “jinoyatning subyektiv tomoni deyilganda, aybdor shaxsning o‘zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmish va uning oqibatlariga ruhiy munosabatlari tushuniladi.

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyatning subyektiv tomonining zaruriy belgisi aybning qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidir. Jinoyatning motivi va maqsadi esa subyektiv tomonining fakultativ belgisi hisoblanadi.

Maqsad va motiv jinoyat subyektiv tomonining fakultativ belgisi hisoblanib, agar ular jinoyat huquqiy normada to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bo'lsagina, jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatadi, boshqa hollarda esa, ular jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi, balki jazo tayinlashda hisobga olinishi zarur hisoblanadi.[4] jinoyat subyektiv tomonining zaruriy belgilariga to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Jinoyat motivi deb** - inson faolligi manbasi, ichki yo'naltiruvchi hissiyot tushuniladi.

Motiv subyektivni o'z maqsadlari sari yo'naltiruvchi kuch hisoblanadi. U ma'lum inson ehtiyojlari va qiziqishlaridan yuzaga keladi va shaxsni jinoyat sodir qilishga yo'naltiradi. (masalan: "Rashk motivi" orqali qasddan odam o'ldirish jinoyati orqali JK 97-moddasi 1-qismi).

**Jinoyat maqsadi esa** – ijtimoiy xavfli qilmishni bajarishdan ko'zlangan manfaat hisoblanadi. Ushbu belgilar jinoyat tarkibi subyektiv tomonining fakultativ belgisi sifatida jinoyatni kvalifikatsiya qilishda e'tiborga olinmasada, jazo tayinlashda e'tiborga olinadi.

Ayrim hollarda, ushbu belgilar JK Maxsus qism moddalari dispozitsiyasida to'g'ridan to'g'ri jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida ham nazarda tutilgan bo'lsa, ular jinoyat tarkibining zaruriy belgisi bo'lib keladi.

**Emotsiyalar** - insonning boshdan kechirayotgan his-tuyg'u va kechinmalaridir. Inson boshdan kechirishi mumkin bo'lgan barcha emotsiyalar ichida faqat affektgina jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Affekt fiziologik yoki patologik bo'lishi mumkin.

Affekt holatida jinoyat sodir etish jazoni yengillashtiruvchi holat hisoblanadi, sharti shuki, u jabrlanuvchining zo'rlik, og'ir haqorat yoki boshqacha g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan bo'lishi lozim[8].

Tahlil natijalariga ko'ra, ayollarga nisbatan zo'ravonlik jinoyatlarining aksariyati qasddan sodir etiladi. Bunda aybdor shaxs o'z harakatining ijtimoiy xavfliligini anglaydi va oqibat yuz berishini istaydi yoki ongli ravishda bunga yo'l qo'yadi. Motivlar turlicha bo'lishi mumkin: rashk; hukmronlikka intilish; qasos; iqtisodiy manfaat; shaxsiy adovat[7].

## MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ayollarga nisbatan zo'ravonlikni faqat jismoniy zarar yetkazish bilan cheklab talqin qilish ilmiy va amaliy jihatdan noto'g'ri yondashuvdir. Chunki ruhiy, iqtisodiy va jinsiy zo'ravonlik ko'pincha jismoniy zo'ravonlikdan kam bo'lmagan salbiy oqibatlarga olib keladi.

**Amaliyotda asosiy muammolardan biri** — ruhiy va iqtisodiy zo'ravonlikni isbotlash mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganidir. Mazkur turdagi qilmishlarda dalillar ko'pincha yashirin bo'ladi, shu sababli sud-tergov organlari uchun maxsus metodik tavsiyalar zarur.

**Ikkinchi muammo** — oilaviy munosabatlar doirasidagi zo'ravonlikni "oilaviy mojaro" sifatida baholash holatlaridir. Bunday yondashuv jabrlanuvchi huquqlarining yetarli himoya qilinmasligiga sabab bo'ladi.

Qiyosiy-huquqiy tahlil ko'rsatadiki, ko'plab davlatlarda himoya orderlari, elektron monitoring, rehabilitatsiya dasturlari va maxsus tergov standartlari samarali natija bermoqda.

Shu sababli milliy amaliyotda ham preventiv va protsessual mexanizmlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

#### **XULOSA**

Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi. Ayollarga nisbatan zo'rvonlik jinoyatlarining obyekti ko'p qirrali bo'lib, shaxsiy, jinsiy, ruhiy va ijtimoiy manfaatlarni qamrab oladi. Ushbu jinoyatlarning obyektiv tomoni harakat, harakatsizlik va tizimli tazyiq shakllarida namoyon bo'ladi. Ayrim jinoyat tarkiblarida maxsus subyekt belgilarini aniqlash kvalifikatsiya uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ko'pchilik holatlarda qasddan ayb shakli mavjud bo'ladi.

Ruhiy va iqtisodiy zo'rvonlik bo'yicha dalillash standartlarini takomillashtirish zarur.

#### **Takliflar:**

Ayollarga nisbatan qilinadigan zo'rvonlik bo'yicha yagona sud amaliyoti sharhlarini ishlab chiqish; tergovchilar va sudyalarning uchun maxsus metodik qo'llanmalar yaratish; himoya orderlari ijrosini kuchaytirish; reabilitatsiya va psixologik yordam tizimini kengaytirish; statistik monitoringning yagona elektron bazasini joriy etish.

Shunday qilib, ayollarga nisbatan zo'rvonlikka qarshi samarali kurashish jinoyat-huquqiy, protsessual va ijtimoiy mexanizmlarning uyg'un qo'llanishini talab etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni.
4. Rustamboyev M.H. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. – Toshkent.
5. Xudaykulov F.X.. Jinoyatning obyektiv tomoni. O'quv qo'llanma. Toshkent - 2024. 14-b
6. Usmonaliyev M, Bakunov P. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Toshkent. "Nasaf" nashriyoti – 2012. 218-b
7. Ochilov X. Jinoyat tarkibi va kvalifikatsiya masalalari. – Toshkent.
8. Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsiddinov Z.Z. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2021. 45-bet.